




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-DEKABR**

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, Toshkent viloyatida jami 14323.1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



1489

•Bino va inshootlar qurish

374

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1037

•Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023- yilning shu davriga nisbatan 70,4 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

- binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,3 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,7 foizga yetdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 96,9 foizga yetdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 35,8 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 67,6 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.01.2024- y.	01.01.2023- y.	
Toshkent viloyati	2900	4122	70,4
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	122	204	59,8
Olmalik	139	222	62,6
Angren	170	284	59,9
Bekobod	119	188	63,3
Ohangaron	109	152	71,7
Chirchiq	299	344	86,9
Yangiyo'l	75	95	78,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	58	98	59,2
Ohangaron	59	88	67,0
Bekobod	85	124	68,5
Bo'stonliq	119	155	76,8
Bo'ka	103	148	69,6
Quyichirchiq	62	92	67,4
Zangiota	230	295	78,0
Yuqori Chirchiq	185	248	74,6
Qibray	290	410	70,7
Parkent	90	127	70,9
Piskent	62	87	71,3
O'rta Chirchiq	147	214	68,7
Chinoz	90	148	60,8
Yangiyo'l	129	207	62,3
Toshkent	158	192	82,3


Qibray (10,0)



Chirchiq sh. (10,3)




Zangiota (7,9)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	14323,1	2950,4	7419,2	3953,5
shaharlar:				
Nurafshon	707,9	94,7	560,1	53,1
Olmaliq	2248,0	1784,7	360,2	103,1
Angren	415,2	12,0	301,4	101,8
Bekobod	580,7	159,8	337,2	83,7
Ohangaron	228,6	0,7	174,0	53,9
Chirchiq	526,2	53,4	412,3	60,5
Yangiyo'l	350,8	24,6	263,3	62,9
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	310,6	27,3	207,3	76,0
Ohangaron	535,8	1,9	429,8	104,1
Bekobod	122,5	0,0	70,3	52,2
Bo'stonliq	478,2	83,3	95,5	299,4
Bo'ka	324,1	0,0	262,1	62,0
Quy Chirchiq	746,3	0,4	631,5	114,4
Zangiota	1294,3	11,1	821,8	461,4
Yuqori Chirchiq	1231,1	188,2	718,6	324,3
Qibray	1299,2	449,3	371,3	478,6
Parkent	345,9	0,0	93,8	252,1
Piskent	188,0	0,0	119,4	68,6
O'rta Chirchiq	640,3	41,5	326,7	272,1
Chinoz	247,7	0,0	155,1	92,6
Yangiyo'l	630,9	17,5	342,9	270,5
Toshkent	870,8	0,0	364,6	506,2



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2950,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 85,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 5.1 % punktga kamayib, 20,6 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,8 % ga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,1 %ni tashkil etgan holda 7419,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

51,8

2023- yil
yanvar-dekabr

51,6

2022- yil
yanvar-dekabr



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (821,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 11,1 %), Yuqori Chirchiq tumani (718,6 mlrd. so'm yoki 9,7 %) va Quyi Chirchiq tumani (631,5 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 8,5 %) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 27,6% ni tashkil etdi yoki 3953,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 127,3% ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-dekabr

2784,5
mlrd. so'm


2023- yil
yanvar-dekabr

3953,5 mlrd.
so'm

22,8%

27,6%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **304,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **14018,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,1%** va **97,9%** ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70